
«JAHOLATGA QARSHI MA'RIFAT» SHIORI OSTIDA MA'NAVIY-MA'RIFIY TADBIR BO'LIB O'TDI

Bugun tuman hokimligida yoshlar o'rtasida ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlash, kelajagimiz vorislarini millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglik hamda ona Vatanga muhabbat ruhida tarbiyalash maqsadida «Jaholatga qarshi ma'rifat» shiori ostida ma'naviy-ma'rifiy tadbir o'tkazildi.

Tuman faollari ishtirokida o'tkazilgan mazkur tadbirda bugungi kunda jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurashish har qachongidan ko'ra muhim ahamiyat kasb etayotgani, vatan qadri, yurt tinchligi, hamjihatlikning qadriga yetish va farzand tarbiyasida ota-onaning o'rni borasida fikrlar ilgari surildi. Muloqot davomida dunyoda din niqobi ostida sodir etilayotgan xunrezliklar muhokama qilinib, yurtimizda hukm surayotgan tinchlik va osoyishtalikni qadriga yetish, loqayd va beparvolikka berilmaslik bo'yicha tushunchalar berib o'tildi.

Tadbirda mavzu yuzasidan mutaxassislar fikr-mulohazalari bildirildi, "Ogoh bo'ling" nomli videofilm namoyish etildi.

2024-02-21 14:04:34